ORGANISER

ARP
Academic Research Publisher

PARTNER ORGANISATIONS

UniScience Journal


GRC
GLOBAL RESEARCH CENTER

HAMROH

ACADEMIC AND EDUCATION EXCELLENCE

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

MODERN SCIENCE:
GLOBAL ACHIEVEMENTS, CURRENT CHALLENGES AND DEVELOPMENT PROSPECTS



No scheduled presentations • Online • Electronic conference proceedings

08.08.2026

TASHKENT • LONDON

UZBEK • RUSSIAN • KARAKALPAK • ENGLISH

academscience.com

1% CHARITY INITIATIVE

zenodo | OpenAIRE | Indexed in Zenodo and OpenAIRE

CONFERENCE PROCEEDINGS

6. ECONOMICS, MANAGEMENT, LAW AND TOURISM 270

OQLOV HUKMI ZARARNI QOPLASH UCHUN YETARLIMI? QONUNCHILIK VA SUD AMALIYOTI TAHLILI 271

РАҚАМЛИ ДАВРДА ХОТИН-ҚИЗЛАР ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ: КИБЕРТАЪҚИБНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ МУАММОЛАРИ 280

XALQARO MOLIYA TASHKILOTLARINING O‘ZBEKISTONDAGI LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI TA’MINLASH MASALALARI 285

A RESULTS-BASED POST-MONITORING FRAMEWORK FOR IFI-FUNDED INFRASTRUCTURE PROJECTS 290

AYBGA IQRORLIK TO‘G‘RISIDA KELISHUV TUZILGAN JINOYATLAR BO‘YICHA JAZO TAYINLASH ASOSLARI VA SHARTLARI 299

ENHANCING INFORMATION AND ANALYTICAL SUPPORT FOR PLANNING INTERNATIONAL TECHNICAL ASSISTANCE PROJECTS IN UZBEKISTAN 311

QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASHNING RAQAMLI MEXANIZMLARI:XORIJIY VA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI TAJRIBASI 331

QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARINI KONVERGENSIYALASHNING IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHDAGI ROLI 346

XALQARO MENEJMENT TIZIMLARI STANDARTLARI ASOSIDA TASHKILOT STANDARTLARI ARXITEKTURASINI TAKOMILLASHTIRISH: YUQORI DARAJALI STRUKTURA (HS) TALABLARIGA MUVOFIQLIK TAHLILI 357

BUSINESS GOVERNANCE AND LEGAL FRAMEWORKS FOR SUSTAINABLE GREEN ECONOMY DEVELOPMENT 362

SUD XARAJATLARI HUQUQNING TARMOQLARARO INSTITUTI SIFATIDA: QONUNCHILIK VA HUQUQIY DOKTRINANING TAJRIBASI 378

VOYAGA YETMAGANLAR O‘RTASIDA GIYOHVANDLIK BILAN BOG‘LIQ HUQUQBUZARLIKLARNING MAXSUS PROFILAKTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH 386

AYOLLAR O‘RTASIDA GIYOHVANDLIK BILAN BOG‘LIQ HUQUQBUZARLIKLARNING MAXSUS PROFILAKTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH 391

OQLOV HUKMI ZARARNI QOPLASH UCHUN YETARLIMI? QONUNCHILIK VA SUD AMALIYOTI TAHLILI

Asqarov Mirzoxid Mirjalol o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti jinoyatchilik omillarini tadqiq qilish markazi

URL: https://academscience.com/conference_archive/modern-science-global-achievements-current-challenges-and-development-prospects/
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21894604

Annotatsiya. *Maqolada noqonuniy jinoiy ta’qib natijasida reabilitatsiya qilingan shaxsga yetkazilgan zararni amalda qoplash masalalari o‘rganilgan. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ–1161-son Qonuni, Jinoyat-protsessual kodeksi, Vazirlar Mahkamasining 1047 va 67-son qarorlari, Oliy sud Plenumining tushuntirishlari, shuningdek, jinoyat va fuqarolik sudlari amaliyoti o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilingan. Muallif ilgari surgan asosiy muammo — sud hujjatida e’tirof etilgan huquq bilan tovon pulining shaxsga amalda to‘lanishi o‘rtasidagi uzilish — keyingi qonunchilik tashabbuslari va sud amaliyotida ham o‘z tasdig‘ini topgani ko‘rsatib berilgan. Reabilitatsiya to‘g‘risidagi sud hujjatini to‘lov jarayoniga avtomatik ravishda ulash, to‘lov manbai va mas’ul organni aniq belgilash, nizosiz summani kechiktirmay to‘lash hamda to‘lov kechiktirilgan taqdirda mablag‘ning haqiqiy qiymatini saqlashga qaratilgan mualliflik takliflari ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *noqonuniy jinoiy ta’qib, reabilitatsiya, zararni qoplash, davlat budjeti, hududiy kompensatsiya jamg‘armasi, sud hujjati, to‘lov muddati.*

Аннотация. *В статье исследуются вопросы фактического возмещения вреда лицу, реабилитированному вследствие незаконного уголовного преследования. Во взаимосвязи проанализированы Закон Республики Узбекистан № ЗРУ–1161, Уголовно-процессуальный кодекс, постановления Кабинета Министров № 1047 и № 67, разъяснения Пленума Верховного суда, а также практика уголовных и гражданских судов. Показано, что ранее обозначенная автором основная проблема – разрыв между признанным судебным актом правом на возмещение вреда и фактическим получением компенсации – нашла подтверждение в последующих законодательных инициативах и судебной практике. Предложены авторские меры, предусматривающие автоматическое включениеены авторские судебного акта о реабилитации в процесс выплаты, точное определение источника финансирования и ответственного органа,*

незамедлительную выплату неоспариваемой суммы, а также сохранение реальной стоимости денежных средств при задержке выплаты.

Ключевые слова: *незаконное уголовное преследование, реабилитация, возмещение вреда, государственный бюджет, территориальный компенсационный фонд, судебный акт, срок выплаты.*

Abstract. *The article examines the practical compensation of harm caused to individuals rehabilitated following unlawful criminal prosecution. It provides an integrated analysis of Law No. O‘RQ–1161 of the Republic of Uzbekistan, the Criminal Procedure Code, Resolutions Nos. 1047 and 67 of the Cabinet of Ministers, the guiding explanations of the Plenum of the Supreme Court, and relevant criminal and civil court practice. The article demonstrates that the central problem previously identified by the author–the gap between the right to compensation recognized by a judicial decision and the actual receipt of payment–has also been confirmed by subsequent legislative initiatives and judicial practice. The author proposes automatically linking a rehabilitation decision to the payment process, clearly identifying the source of funding and the responsible authority, ensuring prompt payment of any undisputed amount, and preserving the real value of compensation in cases of delayed payment.*

Keywords: *unlawful criminal prosecution, rehabilitation, compensation for harm, state budget, territorial compensation fund, judicial decision, payment deadline.*

Kirish

Oqlov hukmi yoki reabilitatsiya to‘g‘risidagi qaror inson hayotidagi og‘ir bir davrga huquqiy nuqta qo‘yadi. Lekin shu bilan masala to‘liq hal bo‘lib qolmaydi. Nohaq ta’qib tufayli yo‘qotilgan ish haqi, olib qo‘yilgan mol-mulk, advokatga sarflangan xarajat va boshqa zarar qoplanmasa, buzilgan huquq amalda tiklangan deb bo‘lmaydi. Oddiy qilib aytganda, sudning «siz haq edingiz» degan xulosasi muhim, ammo belgilangan pul o‘z vaqtida to‘lanmasa, reabilitatsiya yarim yo‘lda qoladi.

Jinoyat-protsessual kodeksining 302–313-moddalarida reabilitatsiya asoslari, qoplanadigan mulkiy ziyon va huquqlarni tiklash tartibi belgilangan. Kodeksning 305-moddasi tegishli to‘lovlar davlat budjeti hisobidan amalga oshirilishini nazarda tutadi [1]. Oliy sud Plenumining 2023-yil 23-iyundagi 18-son qarorida sudlar qaysi zararlarni hisobga olishi, talabni kim va qanday tartibda qo‘yishi mumkinligi batafsil tushuntirilgan [2]. Biroq “davlat budjeti hisobidan” degan qoida pulni aynan qaysi organ, qaysi mablag‘dan va qancha muddatda to‘lashi kerakligini har doim ham o‘z-o‘zidan hal qilib bermaydi.

Bu masala muallifning avvalgi maqolalarida ham ko‘tarilgan. Xususan, reabilitatsiya qilingan shaxsga zarar miqdorini belgilash bilan cheklanib qolmasdan, tayinlangan summaning amalda to‘lanishini kafolatlaydigan alohida tartib zarurligi asoslangan edi [3]. Keyinchalik hududlardan kiritilgan takliflar va qonunchilikdagi o‘zgarishlar mazkur muammo nazariy taxmin emas, amaliyotda mavjud bo‘lgan masala ekanini yana bir bor ko‘rsatdi. Shu sababli ushbu maqolada boshqa idora yoki mansabdor shaxsning tashabbusi takrorlanmaydi; aksincha, muallif ilgari aniqlagan muammoning keyingi hujjatlarda qanday tasdiq topgani tahlil qilinadi.

Tadqiqotning yondashuvi

Maqolada qonun normalari alohida-alohida emas, bir jarayonning bo‘g‘inlari sifatida o‘rganildi: avval reabilitatsiya huquqi tan olinadi, keyin zarar miqdori belgilanadi, undan so‘ng mablag‘ ajratilib, shaxsga to‘lanishi kerak. Shu maqsadda Jinoyat-protsessual va Budjet kodekslari, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari, beshta oqlovga oid jinoyat sudi hujjati, reabilitatsiya tufayli zarar undirishga oid fuqarolik sudlari amaliyoti hamda 2021–2023-yillardagi ma’lumotlar qiyosiy tahlil qilindi.

Huquq tan olingan, ammo to‘lovgacha yo‘l hali uzoq

Oliy sud ma’lumotlariga ko‘ra, faqat boy berilgan ish haqi bo‘yicha undirilishi belgilangan zarar 2021-yilda 737 mln so‘m, 2022-yilda 870 mln so‘m, 2023-yilda esa 6,5 mlrd so‘mni tashkil etgan. Shu summalarning mos ravishda 94, 79 va 24 foizi amalda qoplangan [4]. Bu raqamlar barcha turdagi zararlarni qamrab olmaydi. Shunga qaramay, ular bir narsani ochiq ko‘rsatadi: to‘lanishi lozim bo‘lgan summa keskin oshgan sari, uni o‘z vaqtida qoplash darajasi pasaygan.

Buning sababini davlatda mablag‘ yo‘q, deb izohlash bir tomonlama bo‘ladi. Muammo ko‘proq vaqt va rejalashtirishda. Budjet yil boshidan oldin tasdiqlanadi, reabilitatsiya bo‘yicha majburiyat esa sud yoki tergov qarori kuchga kirgan kunda paydo bo‘ladi. Masalan, 2023-yilda reabilitatsiya asoslari bilan tugatilgan jinoyat ishlarining 59 foizi 2021-yil va undan oldin tergov qilingan ishlarga to‘g‘ri kelgan [5]. Demak, zarar bir davrda yetkaziladi, uni qoplash majburiyati esa bir necha yil o‘tib va boshqa budjet yilida yuzaga kelishi mumkin.

O‘rganilgan jinoyat ishlari ham shu manzarani tasdiqlaydi. A. Azamov va A. Tursunov, G‘. Hamraqulov va boshqalar, L. Nuraliyev hamda I. Rahmonberdiyevga oid sud hujjatlarida shaxslar reabilitatsiya qilinib, ularga JPKning 304–312-moddalari asosida zararni qoplash uchun alohida murojaat qilish huquqi tushuntirilgan [6–9]. M. Mamajonovaga oid kassatsiya ajrimida ham oqlov hukmi o‘zgarishsiz qoldirilgan [10].

Sudlar qonun talabini bajargan, lekin mazkur hujjatlarning o‘zi pul to‘lash jarayonini avtomatik boshlamagan.

Bu xulosani noto‘g‘ri talqin qilmaslik kerak: sanab o‘tilgan ishlarning har birida kompensatsiya umuman to‘lanmagan, deb aytish uchun yetarli ma’lumot yo‘q. Biroq hujjatlardagi umumiy tartib ko‘rinib turibdi – sud huquqni tan oladi, keyingi murojaat yo‘lini tushuntiradi, shundan so‘ng shaxs yana hujjat yig‘ishi va boshqa idoralarga murojaat qilishi kerak bo‘ladi. Aynan shu oraliqda sud qarori bilan real to‘lov o‘rtasida uzilish yuzaga kelishi mumkin.

Fuqarolik sudlari amaliyotida muammo yanada aniq ko‘rinadi. D. Salirovning ishi bo‘yicha 3 051 kun nohaq qamoqda saqlangan shaxs foydasiga 200 mln so‘m ma’naviy zarar davlat budjetidan Toshkent shahar moliya boshqarmasi orqali undirilgan [11]. A. Abrorovga oid ishda esa viloyat moliya boshqarmasidan boy berilgan ish haqi va ma’naviy zarar undirish belgilangan [12]. Bu qarorlar sudlar zarar qoplanishi kerakligini ta’minlaganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, qaysi moliya organi javobgar bo‘lishi va to‘lov qaysi manbadan amalga oshirilishi masalasi sud hujjatida alohida ko‘rsatilishiga ehtiyoj bo‘lganini ham anglatadi.

Maxsus jamg‘arma bor, masala uning reabilitatsiya tartibi bilan bog‘lanishida

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-dekabrdagi 1047-son qarori bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararni hududiy maqsadli jamg‘armalar hisobidan qoplash tartibi belgilangan [13]. Keyingi o‘zgartirishlar, ayniqsa Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-fevraldagi 67-son qarori, ushbu tartibni ancha batafsillashtirdi: mulkiy va ma’naviy zararni qoplash, sud hujjatlarini maxsus ro‘yxatga kiritish, murojaatlarni navbat asosida yuritish va pulni bank hisobvarag‘iga o‘tkazish bosqichlari belgilandi [14]. Amaldagi nizom tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura va sudning qonunga xilof harakati yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararni ham qamrab oladi.

Demak, endi “reabilitatsiya qilingan shaxslar uchun maxsus mablag‘ manbai umuman yo‘q” deyish to‘g‘ri emas. Bunday imkoniyat qonunchilikda bor. Asosiy savol boshqa: JPK asosida chiqarilgan hujjat ushbu jamg‘armadagi to‘lovni o‘z-o‘zidan boshlab beradimi? Amaldagi tartibda shaxs sud qarori va boshqa hujjatlar bilan tegishli hokimlikka murojaat qiladi, hujjat tekshiriladi, maxsus ro‘yxatga kiritiladi va to‘lov navbati kutiladi. Ya’ni huquq mavjud, lekin undan foydalanish uchun reabilitatsiya qilingan odamning o‘zi yana harakat qilishi talab etiladi.

Bu yerda ikki xil muddat ham bir-biriga duch keladi. JPK zararni tez qoplashni nazarda tutadi, Vazirlar Mahkamasining 1047-son qarordagi tartib esa ro‘yxat va

navbat asosida ishlaydi. Jamg‘armada mablag‘ yetarli bo‘lmasa, navbat cho‘zilishi mumkin. Shunda qonunda belgilangan huquq saqlanib qoladi, ammo odam pulini qachon olishi mavhumlashadi. Bizningcha, asosiy huquqiy bo‘shliq aynan shu yerda: jinoyat-protsessual qaror, jamg‘arma ro‘yxati va davlat budjeti hisobidan to‘lov bir-biriga uzluksiz bog‘lanmagan.

O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-iyuldagi O‘RQ–1161-sonli Qonun davlat organi yoki mansabdor shaxsning qonunga xilof qarori, harakati yoxud harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararni qoplashning yangilangan tartibini belgiladi [15]. Unda hujjatni qisqa muddatda ko‘rib chiqish, jamg‘armadan avval to‘lash, keyin aybdor organ yoki shaxsdan mablag‘ni qaytarish masalasini ko‘rish kabi oqilona yondashuvlar mavjud. Qonunning ayrim organlar faoliyati bilan bog‘liq zararlarni alohida qonunchilikka havola qilgani sababli, bu tartibni reabilitatsiyaning barcha holatlariga bevosita ko‘chirib bo‘lmaydi. Lekin u davlat yetkazgan zararni aniq muddat va oldindan belgilangan mablag‘ manbai orqali tez qoplash mumkinligini ko‘rsatadi.

Muallif ilgari ko‘targan muammo va keyingi hududiy taklif

Qashqadaryo viloyati hokimining 2025-yil 18-dekabrdagi taklifida JPK 312-moddasida mulkiy hamda boshqa huquqlarni tiklash yuzasidan murojaat muddatlari turlicha ifodalangani ko‘rsatilib, bildirish xati olingan kundan boshlab ikki yillik yagona muddat belgilash taklif qilingan [16]. Mazkur hujjat amaliyotdagi noaniqlikni tasdiqlovchi muhim manbadir.

Bizningcha faqat JPK 312-moddasidagi muddatni bir xil yozish bilan cheklaninmaslik kerak. Masalani to‘liq hal qilish uchun bildirish xati shaxsga topshirilgan sana talab muddatining yagona boshlanish nuqtasi sifatida belgilanishi, shu bilan birga oqlov yoki reabilitatsiya haqidagi hujjat qonuniy kuchga kirishi bilan uning elektron nusxasi to‘lovni amalga oshiruvchi organga avtomatik yuborilishi kerak. Shunda shaxsning murojaat qilish huquqi saqlanadi, ammo davlat o‘z majburiyatini bajarishni uning yana idorama-idora yurishiga bog‘lab qo‘ymaydi.

Sud qaroridan pul o‘tkazilishigacha bo‘lgan sodda tartib

Reabilitatsiya to‘lovlarini alohida “moliyaviy xavf” degan murakkab ibora bilan cheklab qo‘yish shart emas. Uning mazmuni sodda: davlat yil davomida qancha bunday majburiyat paydo bo‘lishini oldindan aniq bilmasligi mumkin, lekin oldingi yillardagi o‘rtacha summalar, tugallanmagan talablar va ko‘rilayotgan ishlar soni asosida zarur zaxirani taxminan hisoblay oladi. Shu sababli davlat budjetida reabilitatsiya bo‘yicha to‘lovlar uchun alohida markazlashtirilgan zaxira nazarda tutilishi maqsadga muvofiq.

To‘lovchi organ ham bitta bo‘lishi kerak. Sud, tergov, prokuratura, hokimlik, moliya va ijro organlari o‘z vazifasini bajaradi, lekin reabilitatsiya qilingan shaxs

ularning o‘zaro yozishmalarini kuzatib yurmasligi lozim. Qonuniy kuchga kirgan hujjat yagona to‘lovchiga kelib tushgach, u majburiyatni ro‘yxatga oladi, mablag‘ni shaxsning hisobvarag‘iga o‘tkazadi, idoralar o‘rtasidagi keyingi hisob-kitobni esa fuqaro ishtirokisiz hal qiladi.

Sud hujjatida zararning bir qismi aniq, boshqa qismi bo‘yicha esa nizo davom etayotgan bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatda hamma masala yakunlanishini kutib, butun to‘lovni ushlab turish adolatli emas. Miqdori hujjatlar bilan tasdiqlangan va hech kim e’tiroz bildirmayotgan qism darhol to‘lanishi, bahsli qism esa alohida ko‘rilishi kerak. Bu usul shaxsning hech bo‘lmaganda aniq summani o‘z vaqtida olishiga imkon beradi.

To‘lov muddati, pulning qadrsizlanishi va qaytarma talab

Tartibda aniq muddat bo‘lmasa, «tezkor to‘lash» degan qoida yaxshi niyat darajasida qolib ketadi. Shu bois sud hujjati to‘lovchi tizimda qayd etilgan kundan boshlab eng ko‘p qancha vaqtda pul o‘tkazilishi qonunda ochiq yozilishi zarur. Vazirlar Mahkamasining 1047 va 67-son qarorlardagi qisqa tashkiliy muddatlar hamda O‘RQ–1161-son Qonundagi bosqichlar bunday yondashuv amalda qo‘llanishi mumkinligini ko‘rsatadi [13–15].

To‘lov kechiksa, pul o‘z qiymatini yo‘qotadi. Bir yil avval belgilangan summa bugun o‘sha darajada zarar o‘rnini qoplamasligi mumkin. Shuning uchun kechiktirilgan mablag‘ narxlar o‘sishiga mos ravishda qayta hisoblanishi lozim. Bu davlatni jazolash emas, sud belgilagan kompensatsiyaning haqiqiy qiymatini saqlash chorasi hisoblanadi.

Davlat zararni qoplaganidan keyin, qonunda asos bo‘lsa, aybdor mansabdor shaxs yoki tegishli organdan to‘langan mablag‘ni qaytarishni talab qilishi mumkin. Huquqshunoslikda bu “regress” deyiladi. Uning oddiy ma’nosi – davlat avval jabrlangan shaxsga pulni to‘laydi, keyin aybdor tomondan uni qaytarish masalasini hal qiladi. Eng muhimi, ikkinchi jarayon birinchi to‘lovni ushlab turmasligi kerak.

Muallif taklif etayotgan yaxlit yechim

Yuqoridagi tahlildan kelib chiqib, reabilitatsiya qilingan shaxsga zarar qoplashning quyidagi yaxlit tartibini joriy etish taklif qilinadi. Birinchidan, oldingi yillardagi to‘lovlar va kutilayotgan ishlar asosida davlat budjetida alohida markazlashtirilgan zaxira shakllantiriladi. Ikkinchidan, oqlov yoki reabilitatsiya haqidagi hujjat kuchga kirishi bilan to‘lov uchun zarur ma’lumotlar yagona to‘lovchiga avtomatik yuboriladi. Uchinchidan, nizosiz summa darhol, qolgan qismi esa qonunda belgilangan eng ko‘p muddat ichida to‘lanadi. To‘rtinchidan, kechikkan summa

qadrsizlanishdan himoya qilinadi, aybdor tomondan mablag‘ni qaytarish masalasi esa shaxsga to‘lov amalga oshirilgandan keyin alohida ko‘riladi.

Bu taklifning yangiligi yangi jamg‘arma nomini o‘ylab topishda emas. Vazirlar Mahkamasining 1047-son qarori asosida hududiy jamg‘armalar allaqachon mavjud. Yangilik – JPKdagi reabilitatsiya huquqini, sud hujjatini, jamg‘arma yoki budjet mablag‘ini va bank orqali to‘lovni bitta uzluksiz jarayonga bog‘lashda. Natijada «huquqingiz bor, yana murojaat qiling» degan tartib o‘rnini «huquq tan olindi, davlat to‘lovni o‘zi boshlaydi» degan yondashuv egallaydi.

Xulosa va takliflar

Reabilitatsiya qilingan shaxsga zarar to‘lash davlatning xayriya yordami emas. Bu davlatning o‘zi buzgan huquqni tiklash majburiyatidir. Amaldagi qonunchilikda zararni qoplash asosi ham, hududiy jamg‘arma ham, sud orqali undirish imkoniyati ham mavjud. Ammo ushbu bo‘g‘inlar o‘zaro to‘liq ulangan emas. Natijada shaxs oqlanganidan keyin ham to‘lov uchun yana alohida yo‘l bosib o‘tishi mumkin.

1. JPKning 305 va 312-moddalarini Vazirlar Mahkamasining 1047-son qarori bilan belgilangan hududiy kompensatsiya jamg‘armalari tartibiga aniq bog‘lash, sud hujjatida to‘lov manbai va mas’ul to‘lovchi organni bir xil ko‘rsatish qoidasini belgilash.

2. Muallif tomonidan ilgari ilgari surilgan yondashuvni rivojlantirib, JPK 312-moddasida barcha talablar uchun bildirish xati olingan kundan boshlanadigan yagona muddatni belgilash; sud hujjati kuchga kirishi bilan uning elektron nusxasini yagona to‘lovchiga avtomatik yuborish.

3. Hududiy jamg‘armadagi navbat JPKda nazarda tutilgan to‘lov muddatini cheksiz cho‘zmasligini belgilash; mablag‘ yetishmaganda davlat budjetidagi markazlashtirilgan zaxiradan qo‘shimcha mablag‘ ajratish.

4. Miqdori aniq va nizosiz bo‘lgan summani darhol to‘lash, qolgan qism bo‘yicha nizo davom etayotgan taqdirda ham ushbu to‘lovni to‘xtatmaslik.

5. Kechiktirilgan summani narxlar o‘sishiga mos ravishda qayta hisoblash hamda davlatning aybdor tomondan mablag‘ni qaytarish talabi reabilitatsiya qilingan shaxsga to‘lovdan keyin alohida ko‘rilishini qonunda mustahkamlash.

6. Har yili tayinlangan, amalda to‘langan, navbatda turgan va muddati o‘tgan kompensatsiyalar haqida shaxsga doir ma’lumotlarni oshkor qilmagan holda umumiy ochiq hisobot e’lon qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. 302–313-moddalar. URL: https://lex.uz/docs/-111460. Elektron manbaga murojaat qilingan sana (20.07.2026 yil)

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 23-iyundagi “Reabilitatsiya etilgan shaxsga yetkazilgan ziyonni qoplash va uning boshqa huquqlarini tiklash bo‘yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 18-son qarori. URL: https://lex.uz/docs/6523569. Elektron manbaga murojaat qilingan sana (20.07.2026 yil)

3. Asqarov M.M. Reabilitatsiya etilgan shaxslarning ma’naviy zararlarini qoplash: huquqiy asoslar, amaliyotdagi muammolar va ularning yechimlari // Kriminologik faoliyat. 2025. № 4. B. 96–100.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2021–2023-yillarda reabilitatsiya qilingan shaxslarga yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplashga oid ma’lumotnomasi (hujjat asl nusxasi).

5. O‘zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Tergov departamentining 2021–2023-yillar bo‘yicha “1Ya” hisoboti (hujjat asl nusxasi).

6. Farg‘ona viloyat sudi jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati apellatsiya instansiyasining 2021-yil 16-apreldagi A. Azamov va A. Tursunovga oid hukmi. Ish № 3-112-2020 (E 1-1507-1901/118). Elektron manbaga murojaat qilingan sana (22.07.2026 yil)

7. Farg‘ona viloyat sudi jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati apellatsiya instansiyasining 2023-yil 23-iyundagi G‘. Hamraqulov va boshqalarga oid hukmi. Jinoyat ishi № 1-235/2016. Elektron manbaga murojaat qilingan sana (22.07.2026 yil)

8. Farg‘ona viloyat sudi jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati kassatsiya instansiyasining 2024-yil 29-noyabrdagi L. Nuraliyevga oid hukmi. Jinoyat ishi № 1-1519-2201/196. Elektron manbaga murojaat qilingan sana (22.07.2026 yil)

9. Farg‘ona viloyat sudi jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati kassatsiya instansiyasining 2025-yil 1-apreldagi I. Rahmonberdiyevga oid hukmi. Jinoyat ishi № 1-1501-2303/364. Elektron manbaga murojaat qilingan sana (22.07.2026 yil)

10. Farg‘ona viloyat sudi jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati kassatsiya instansiyasining 2025-yil 14-oktabrdagi M. Mamajonovaga oid ajrimi. Jinoyat ishi № 1-1507-2501/97. Elektron manbaga murojaat qilingan sana (22.07.2026 yil)

11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi. “Nohaqlik uchun ikki yuz million” nomli sud amaliyoti materiali. URL: https://old.sud.uz/nohaqlik-uchun/. Elektron manbaga murojaat qilingan sana (25.07.2026 yil)

12. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining 2020-yil 27-iyundagi RS-39-20-son qarori bilan tasdiqlangan fuqarolik ishlari bo‘yicha sud amaliyoti obzori. URL: https://lex.uz/docs/4947843. Elektron manbaga murojaat qilingan sana (25.07.2026 yil)

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-dekabrdagi 1047-son qarori bilan tasdiqlangan “Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo‘yicha maqsadli jamg‘armalar mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi nizom. URL: https://lex.uz/docs/4130273. Elektron manbaga murojaat qilingan sana (25.07.2026 yil)

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-fevraldagi 67-son “Hukumatning ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori. URL: https://lex.uz/docs/7382956. Elektron manbaga murojaat qilingan sana (25.07.2026 yil)

15. O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-iyuldagi O‘RQ–1161-sonli “Davlat organining yoki uning mansabdor shaxsining qonunga xilof qarori, harakati yoxud harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash to‘g‘risida”gi Qonuni. Elektron manbaga murojaat qilingan sana (03.08.2026 yil)

16. Qashqadaryo viloyati hokimining 2025-yil 18-dekabrdagi 01-20/1346-son qonunchilik taklifi (Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 2025-yil 24-dekabrda XT-5926-son bilan ro‘yxatga olingan). Elektron manbaga murojaat qilingan sana (25.07.2026 yil)

17. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. URL: https://lex.uz/docs/-2304138. Elektron manbaga murojaat qilingan sana (25.07.2026 yil)

18. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi 258-II-son Qonuni. URL: https://lex.uz/docs/-26477. Elektron manbaga murojaat qilingan sana (25.07.2026 yil)